

FRAZEOLOGIYA TILSHUNOSLIKNING ALOHIDA BO'LIMI SIFATIDA SHAKLLANISH TARIXI

Ulug'bekova Shaydo Ulug'bek qizi
O'zMU ilmiy tadqiqotchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologiyaning vujudga kelishi va tilshunoslikning alohida bo'lumi sifatida ajralib chiqishi hamda uning rivojlanishi tarixi haqida so'z yuritiladi. Bundan tashqari ,chet el olimlarining ushbu fanga qo'shgan hissasi, o'zbek tilshunoslarning fan doirasida yaratgan qimmatli asarlari haqida malimot beriladi.

Kalit so'zlar: frazealogiya, tilshunoslik, ideomatik so'z, leksikologiya, turkiyshunoslilik, so'z birikmasi,

Аннотация: В данной статье говорится о возникновении фразеологии и выделении ее как отдельной отрасли языкоznания, а также об истории ее развития. Кроме того, приведён вклад зарубежных учёных в эту науку, ценные труды, созданные узбекскими лингвистами в области науки.

Ключевые слова: фразеология, языкоznание, идеоматическое слово, лексикология, тюркология, фразеология.

Annotation: This article talks about the emergence of phraseology and its separation as a separate branch of linguistics, as well as the history of its development. In addition, the contribution of foreign scientists to this science, the valuable works created by Uzbek linguists in the field of science are given.

Keywords: phraseology, linguistics, ideomatic word, lexicology, Turkic studies, phraseology,

Kirish

Frazeologiya tilshunoslikning alohida bir bo'limi bo'lib, unda ko'chma ma'noga asoslangan turg'un birikmalar, iboralar o'r ganiladi. "Frazeologiya". termini grekcha "pharsis" fraza, ifoda "logos" ta'limot degan ma'nolarni anglatib, uning tadqiqot doirasiga faqat ko'chma ma'noga asoslangan turg'un birikmalar kiritiladi

Frazeologiya alohida fan sifatida shakillanguniga qadar u leksikaloyianing tarkibi sifatida qaralgan. Frazeologiya muammolariga qiziqish dastlab rus tilshunoslari qiziqa boshlagan bo'lsada, u alohida termin sifatida ilk bor g'arb tilshunosi Sh. Balli tomonidan qo'llanilgan. U o'zining "Stilistikadan ocherklar" va "Fransuz tili stilistikasi" asarlarida so'z birikmalariga yaxlit bir tizim sifatida qarab, ularning grammatik va leksik xususiyatlari, sintaktik strukturasi va atash ma'nolarining o'ziga xosligidan kelib chiqadigan, yaxlit qo'llanila oladigan birliliklagini isbotlashga harakat qildi.

F.de Sossyur esa "Umumiy tilshunoslilik kursi" (1916) asarida sintagma, uning belgilari haqida so'z yuritar ekan, tilda shunday tayyor birikmalar («готовые речения») borki, ularning uzual xarakteri ma'nosi va sintaktik xususiyatidan kelib chiqadi. Ularni improvizatsiyalash (tayyorgarliksiz qo'llash) mumkin emas, chunki bunday birikmalar tayyor holda, an'anaga ko'ra qo'llanadi, degan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmog‘i sifatida XX-asrning 40-yillarida rus tilshunosligida paydo bo‘lgan. Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A. A. Potebnya, I. I. Sreznevskiy, A. A. Shaxmatov asarlarida asos solingan bo‘lsa, barqaror (turg‘un) so‘z birikmalarini alohida tilshunoslik bo‘limi — Frazeologiyada o‘rganish masalasi 20—40-yillardagi o‘quv-metodik adabiyotlarda — Ye.D.Polivanov, S. Abakumov, L. A. Bulakovskiy asarlarida ko‘tarib chiqilgan. G‘arbiy Yevropa va Amerika tilshunosligida Frazeologiya tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida ajratilmaydi¹³⁷.

Frazeologiya tilshunoshlikda mustaqil fan sifatida yaqinda paydo bo‘lgan. Uning shakllanishi taniqli tilshunoslar nomi bilan uzviy bog‘liqdir. Tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida ilk bor rus tilshunosi Y.D.Polivanov tahlil qiladi va u frazeologiyani leksikologiya yoki stilistikaning tarkibiy qismi emas, balki mustaqil tilshunoslik bo‘limi ekanligini asoslab bergen edi. “Leksikologiya so‘zlarning leksik ma’nolarini, morfologiya so‘zlarning grammatik ma’nolarini, sintaksis esa so‘z birikmalarining grammatik ma’nolarini o‘rganadi. Ammo alohida olingen, ko‘chma ma’noli so‘z birikmalarining, individual ma’nolarini o‘rganadigan tilshunoslikning bo‘limiga ehtiyoj sezilmoqda”¹³⁸. U tilshunoslikda frazeologiya ham, morfologiya yoki fonetika singari muhim ahamiyat kasb etadigan bo‘lim ekanligini ta’kidlab o‘tgan tilshunoslardan biridir.

O‘zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o‘tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Turkiy frazeologiyaning boshlovchilari turkiyshunos olimlar S.K.Kenesbayev va Sh.U.Rahmatullayevlar hisoblanadi¹³⁹. Ularning o‘tgan asrning 40-yillarning ikkinchi yarmi va 50-yillarda yuzaga kelgan tadqiqotlari turkiy tillar frazeologiyasining shakllanishi va taraqqiyotida katta rol o‘ynaydi. Shundan keyingi 30-40-yil mobaynida turkiy tillardagi frazemalarni intensiv o‘rganish bo‘yicha muhim yutuqlar qo‘lga kiritildi

Frazeologizmlarning o‘rganilish tarixi haqida gapirilganda, ”frazeologiya” atamasi ”fraz” so‘zidan olingen bo‘lsa-da, turkiyshunoslikda dastlab bu atama turli ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qilgan. XIX asrda yashagan turkiyshunos olim Mirza Kozimbek (1802- 1870) o‘sha davr an’analardan kelib chiqib, rus tilida yozilgan boshqa tasviriy grammatikalarda bo‘lgani singari o‘z asarida ”fraz” so‘zini jumla, gap ma’nosida qo‘llagan. Ozarbayjon tilshunosi B.Cho‘ponzoda va F.Og‘azoda ”Turk tili grammatikasi” asarida til bo‘limlari haqida fikr yuritib, ”Semasiologiya”, ”Stilistika” atamalari bilan birga o‘sha davrda tilshunoslikda keng qo‘llanishda bo‘lgan ”idiomatizm” atamasini ishlatgan¹⁴⁰. Mualliflar bu asarda turk tilidagi idiomalarga oid ”boshga solmoq”, ”boshga tushmoq”, ”ko‘z ko‘rmoq” kabi birliklarni misol sifatida keltiradilar. Umuman, frazeologiya turkiyshunoslikda nisbatan keyin paydo bo‘lgan. Uni sistemali ravishda o‘rganish faqat o‘tgan asrning 40-50-yillariga kelib boshlandi. G‘Salomov o‘zbek tilshunosligi uchun g‘oyat dolzarb muammolardan biri frazemalar tarjimasi bilan maxsus shug‘ullangan olimdir¹⁴¹.

Ko‘pgina tilshunoslar frazeologik iboralar faqat ikki so‘zdan ortiq bo‘ladi degan fikrlarni bildiradilar. Ammo kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, frazeologik iboralar ikki, uch va undan ortiq

¹³⁷ Abdullayev Muhammad-Ali Ravshan o‘g‘li ”Frazeologik birliklar tarixiy aspektida” (Volume-3) 1_Iyul_2023/<http://www.newjournal.org/>

¹³⁸ Maksetova Zuhra To‘rebayeva, Qambaraliyev S.B, Yunusov A.Sh. ”Tilshunoslikda frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning tasnifi” 1.7(2022: 5.947) 2181-1784

¹³⁹ Turaboyeva Lobar Quramboevna ”o‘zbek tilida frazeologiya masalalarining tadqiqiga doir”/
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7722812>

¹⁴⁰ Sh.Rahmatullaev. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari, Toshkent, 1966.

¹⁴¹ Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. –Тошкент, 1999.

so'zlardan iborat bo'ladi. Ammo ayrim tilshunoslar bir so'zdan iborat iboralar ham bor deb fikr yuritadilar. Jumladan, professor A. Jafarovning fikricha bir so'zdan iborat iboralar idiomatik iboraning eng yuqori taraqqiyot bosqichida hosil bo'ladi. Bu turdag'i iboralar qo'shma so'z yoki yakka so'z bilan ifodalanadi, ular to'g'ridan – to'g'ri fikrni anglata olmasligi jihatdan ham qo'shma so'zlardan farqlanadi. To'g'ri bir so'z orqali ham idiomatik ma'no anglashiladi. Lekin bunday so'zlarni ibora deyish qiyin. Chunki ibora so'zlar birikmasidan iborat bo'lishi kerak. Bu haqda V. V. Vinogradov, A. Abakumov, A. Shaxmatovlarning fikrlari qimmatga sazovordir.¹ Idiomatik so'zlar faqat yolg'iz so'zlardangina tashkil topib, idiomatik ma'no anglatadi. Lekin ibora aks ettirgan xususiyatlarni anglata olmaydi. Akademik V.V. Vinogradovning aytishicha, frazeologik birliliklarning taraqqiyoti frazeologik butunlikdan boshlanib, frazeologik qo'shilmalarga aylanishi kerak. Frazeologik butunlikdan frazeologik chatishmalar, keyinchalik esa frazeologik qo'shilmalarga taraqqiy etib borishi kerak. Shu fikrga asoslanib Sh. Raxmatullayevning "idiomatik so'zlar frazeologik qo'shilmalar negizida vujudga keladi" degan fikrlari asoslidir¹⁴².

Xulosa

Aksariyat hollarda kishilar muloqot chog'ida fikrni ifodalash, uning ta'sirchanligini oshirish yoki retsipyent diqqatini ayni bir hodisa-jarayonga jalb etish maqsadida keng ommaga ma'lum jumla, vaziyat yoki shaxslarga turli ishoralar bilan murojaat qiladilar. Har qanday millatning uzoq-yaqin o'tmishida butun halqqa tanilgan mashhur shaxslari, afsonaviy xalq qahramonlari, e'tiborga molik manzilgohlari, mashhur tarixiy voqealarning nomlari ana shu lingvomadaniy hamjamiyatning lisoniy xotirasida turli assosiasiylar bilan bog'liq tarzda saqlanib turadi. Shu sabab har bir tilde ishlataluvchi frazeologik birliliklarning ahamiyati katadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, frazemalarni hosil qiluvchi birliklar ko'p va xilmal-xil bo'lib badiiy matnning ta'sirchanligini oshiradigan estetik-ekspressiv hodisa va asarning qaysi o'rnida kelishiga ko'ra, qanday birliliklardan tashkillanishiga va qanday badiiy niyatni ifodalashiga ko'ra turlarga bo'linadi. Bu hodisani teran o'rganish va uning mohiyatini mukammal ochib berish uchun ko'plab ilmiy tadqiqotlar kerak bo'ladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Abdullayev Muhammad-Ali Ravshan o'g'li "FRAZEOLOGIK BIRLIKLER TARIXIY ASPEKTDA" (Volume-33)1_Iyul_2023/<http://www.newjournal.org/>
2. Maksetova Zuhra To'rebayeva, Qambaraliyev S.B, Yunusov A.Sh. "TILSHUNOSLIKDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O'RGANILISHI VA ULARNING TASNIFI" 1.7(2022: 5.947) 2181-1784
3. Turaboyeva Lobar Quramboyevna "O'ZBEK TILIDA FRAZELOGIYA MASALALARINING TADQIQIGA DOIR"/ <https://doi.org/10.5281/zenodo.7722812>
4. Sh.Rahmatullaev. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari, Toshkent, 1966.
5. 1 Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари. –Тошкент, 1999.
6. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection In French Phraseology." Journal of Positive School Psychology (2022): 2883-2889.

¹⁴² A.Mamatov. Frazeologizmlarning shakllanish asoslari, Toshkent, 1996.

7. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." Конференции. 2021.
8. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek Phraseology." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
9. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into "Historical Memory" in French and Uzbek Linguistic Traditions." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
10. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing "Historical Memory" In Uzbek and French Languages." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
11. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 2.11 (2023): 490-492.
12. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." Академические исследования в современной науке 2.17 (2023): 165-169.
13. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." Academic research in educational sciences 3.5 (2022): 1176-1182.
14. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 879-884.
15. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in French" O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023,[1/4] (2023).